



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “30” aprel

BUYRUQ № 49

Toshkent sh.

**Xodimlarning alohida lavozimlari va kasblari bo‘yicha ish haqi tanlanma
statistik kuzatuv uchun uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, xodimlarning alohida lavozimlari va kasblari bo‘yicha ish haqi tanlanma statistik kuzatuv uslubiyatini takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Xodimlarning alohida lavozimlari va kasblari bo‘yicha ish haqi tanlanma statistik kuzatuv uchun uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 28- fevraldagi “Xodimlarning alohida lavozimlari va kasblari bo‘yicha ish haqi tanlanma statistik kuzatuv bo‘yicha uslubiy nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 4- son qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 21- oktyabrdagi “Xodimlarning alohida lavozimlari va kasblari bo‘yicha ish haqi tanlanma statistik kuzatuv uslubiy nizomga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida” 38- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov